



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

№3

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2024



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2024 йил, 3-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎЗР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д. Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

катта ўқит. Ш.З.Ўразов

Техник муҳаррир:

и.ф.н., доц. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 мартаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида
тарқатилади.**

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53

эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори в.б., DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти в.б., DSc

Шавкат Собирович Олтаев Ўзини-ўзи банд қилишда заиф бандликдан унумли бандликка ўтишнинг инновацион йўллари	84
Меҳрангиз Олимовна Мамаюнусова Камбағалликни қисқартиришда ижтимоий хизматларнинг ўрни	88
Farruh Shadiyrovich Shanazarov Essence and content of the concept of poverty	92
Sunnatillo Bakhriddin o‘g‘li Iskandarov Xizmat ko‘rsatish sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning milliy iqtisodiyotdagi o‘rni va funksiyalari	95
ХИЗМАТ КўРСАТИШ ВА СЕРВИС	
Анвар Нематович Холикулов Хизмат кўрсатиш корхоналари самарадорлигини аниқлаш йўллари	99
Komoliddin Jurabayevich Matkarimov, Adxamjan Akbarovich Urinov Transport xizmatlari eksportini modellashtirish va bashoratlash masalalari	103
Shohsanam Nuritdinovna Niyozova Milliy iqtisodiyotda internet xizmatlari bozorining samaradorligini oshirish va takomillashtirish yo‘llari	107
Dilshod Sultanovich Musinov Xizmat ko‘rsatish sohasida investitsion loyihalar samaradorligini oshirish yo‘llari	112
Aziza Tolibovna Raxmonova Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishda oilaviy tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash samaradorligi	117
Hamdam Iris o‘g‘li Allayorov Raqamli iqtisodiyot sharoitida milliy aloqa xizmatlari bozorining o‘ziga xos xususiyatlari	123
Нигина Бахтиёрвна Рузиева Изучение инновационного развития сферы услуг в зарубежных странах	127
ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ	
Suxrob Ramazonovich Bobokalonov Jozibador turistik destinatsiya tushunchasining mazmun-mohiyati, ilmiy-nazariy yondashuvlarning qiyosiy tahlili	130
Malika Axmad qizi Qurbonova Turizm va mehmonxona xizmatlarining aylanma mablag‘lar bilan ta‘minlanganlik darajasi va uning iqtisodiy barqarorligiga ta‘siri	135
Abduvoxid Quldoshevich To‘rayev Turizmda hududlar salohiyatidan oqilona foydalanishning nazariy asoslari va tamoyillari	140
Ойдин Давроновна Хамракулова Зеленая экономика и экологический туризм в экономике Узбекистана	143
Шоҳижаҳон Худоёр ўғли Мухитдинов Туризм хизматлари бозорининг ишлаш механизмини оптималлаштириш жараёни	147
Матлубахон Абдиманабовна Куймуратова Туризм соҳасини ривожлантиришнинг ташкилий-иқтисодий механизмларининг назарий масалалари	152

and entrepreneurship, to become one entrepreneur from each family, to create a free competitive environment, to protect private property;

Second, the restoration of permanent jobs in all areas of employment, the creation of new permanent and seasonal jobs;

Third, the development of cooperative relations in agriculture and increase the competitiveness of the industry, the creation of an integrated production chain;

In short, the quality and timeliness of the implementation of comprehensive measures in the identified priorities will ensure the sustainable growth of our national economy this year and further accelerate economic growth in the coming years in the context of the deepening global crisis. This, in turn, coverages the measures taken in our country to reduce poverty.

Literature

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2020 yil 25 yanvar, № 19 (7521)
2. Abdurahmonov Q.X., Xolmo‘minov Sh.R. “Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi”. O‘quv qo‘llanma -T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2004 y.
3. Ricardo, David (1817) On the Principles of Political Economy and Taxation. Piero Sraffa (Ed.) Works and Correspondence of David Ricardo, Volume I, Cambridge University Press, 1951, p. 135. Amartya Sen «Bednost’ i golod: ocherk o pravax i lisheniyax» (1981).
4. Bednost’: vzglyad uchenykh na problemu. M., 1994

<p>F. Shanazarov</p> <p>Kambag‘allik tushunchasining mohiyati va mazmuni</p> <p>Annotatsiya: Ushbu maqolada kambagallikning mohiyati va O‘zbekiston Respublikasi aholisining qashshoqlik darajasi, ularning muammolari, kambagallikni kamaytirish va bartaraf etish bo‘yicha aniq tavsiyalar, ilmiy tavsiyalar berilgan.</p> <p>Kalit so‘zlar: Barqaror rivojlanish, o‘sish sur‘atlari, kambagallik, kambagallikni kamaytirish konsepsiyasi, harakatlar strategiyasi, tadbirkorlikni rivojlantirish, innovatsiyalar, aholi daromadlari, global muammolar, inqirozlar, qashshoqlik darajasi, ijtimoiy himoya.</p>	<p>Ф.Шаназаров</p> <p>Суть и содержание понятия бедности</p> <p>Аннотация: Эта статья предоставляет информацию о природе бедности и населении Республики Узбекистан, находящемся в бедности, их проблемах, конкретных рекомендациях по сокращению и устранению бедности, а также научных рекомендациях.</p> <p>Ключевые слова: Устойчивое развитие, темпы роста, бедность, концепция снижения бедности, стратегия действий, развитие предпринимательства, инновации, доходы населения, глобальные проблемы, кризисы, уровень бедности, социальная защита.</p>
--	---

Sunnatillo Bakhridin o‘g‘li Iskandarov – SamISI “Real iqtisodiyot” kafedrasida assistent stajyori

XIZMAT KO‘RSATISH SOHASIDA OILAVIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING MILLIY IQTISODIYOTDAGI O‘RNI VA FUNKSIYALARI

<p>Annotatsiya. Mazkur maqolada xizmat ko‘rsatish sohasidagi oilaviy tadbirkorlikning O‘zbekiston milliy iqtisodiyotidagi o‘rni va funksiyalari ko‘rib chiqiladi. Ushbu sektorning iqtisodiy rivojlanish, bandlik va ijtimoiy farovonlikka ta’siri tahlil qilinadi. Oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishi bilan bog‘liq afzalliklar va muammolar, shuningdek, davlat siyosati va qo‘llab-quvvatlashning ushbu sohani rag‘batlantirishdagi roli baholanadi</p> <p>Kalit so‘zlar: oilaviy tadbirkorlik, xizmat ko‘rsatish sohasi, milliy iqtisodiyot, rivojlanish, funksiyalar.</p>

Kirish. Oilaviy tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati uning jamiyatdagi o‘rni va funksiyalari bilan bog‘liq. Oilaviy tadbirkorlikning milliy iqtisodiyot shakllanishidagi o‘rni, asosan iqtisodiyotning tarmoqlari va sohalarida yaratilayotgan ne‘matlarning pirovard natijasi bilan ifodalanadi. Oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishi va uning ulushining oshib borishi, buning asosida kichik va o‘rta tadbirkorlik faoliyati natijalari katta ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. 2023-yil 11-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston – 2030»

strategiyasi to‘g‘risida»gi qabul qilingan farmonida 5 ustuvor yo‘nalish bo‘yicha 100 ta muhim maqsad o‘z aksini topgan. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida biznes muhitini yaxshilash, soliq tizimini raqamlashtirish va soddalashtirish ishlari rejalashtirilgan. Shu bilan birga 2027-yilga borib, xususiy sektorning YAIMdagi ulushini 80 foizga yetkazish va eksportdagi ulushini 60 foizga oshirish maqsad qilingan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish maqsadida olib borayotgan ilmiy izlanishlarimiz natijasida, milliy iqtisodiyotning rivojlanishi bevosita xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishi bilan bog‘liq ekanligi aniqlandi. Oilaviy tadbirkorlikning o‘rni va ro‘lini aniqlash, milliy iqtisodiyotdagi ahamiyatini tushunish, va uning yalpi hududiy mahsulotni shakllantirishdagi rolini tahlil qilish muhimdir. Shunga ko‘ra, tadbirkorlikni rivojlantirishga e‘tibor qaratish zarur, va buni o‘zimizga mos tadbirkorlik shakllarini tanlab amalga oshirish orqali ta‘minlashimiz kerak. Maqsadimiz – oilaviy tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyatini, yalpi hududiy mahsulot shakllanishidagi rolini va uning jamiyatdagi funksiyalarini aniqlab berish. Bu tadqiqot oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishiga, kichik va o‘rta tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi ulushiga, va ularning milliy iqtisodiyotga qo‘shgan hissasiga e‘tibor qaratishga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va jamiyat barqarorligini ta‘minlashga qo‘shayotgan muhim hissasi tufayli oilaviy tadbirkorlikning xizmat ko‘rsatish sohasidagi o‘rni olimlar e‘tiborini tobora orttirmoqda. Ushbu yo‘nalish bo‘yicha xorijlik olimlar, jumladan A. Smid, Dj. M. Keynes, Y. Shumpeter, Howard H. Frederick, Donald F. Kuratko and Richard M. Hodgetts, Danny Miller, Isabelle Le Breton-Millerlar tadqiqot olib borgan. Shu bilan birga, o‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar, masalan, A. Ulmasov, S. S. G‘ulomov, M. Q. Pardayev, G. M. Shadiyeva, Sh. O. Quvondiqov kabilar faoliyat yuritib, bir necha ilmiy asarlarni nashr qilishga muvaffaq bo‘lgan. Amerikalik iqtisodchi olimlar Kelin E. Gersick, John A. Davis, Marion McCollom Hampton va Ivan Lansberg — asosan oilaviy tadbirkorlik va biznes sohasida ilmiy ilanishlar olib borganlar. **Kelin E. Gersick** — oilaviy bizneslardagi dinamika va o‘tkazuvchanlikni o‘rganish bo‘yicha **John A. Davis** — oilaviy tadbirkorlik va uning strategiyalari bo‘yicha **Marion McCollom Hampton** — oilaviy bizneslarning rivojlanishi va ijtimoiy tafakkuri bo‘yicha **Ivan Lansberg** — oilaviy bizneslarda muvaffaqiyat va uzoq muddatli davomiylikni ta‘minlash masalalarida maxsus izlanishlar olib borgan. Ushbu olimlarning fikricha “Oilaviy biznes, qaror qabul qilish huquqining aksariyati oila a‘zolariga tegishli bo‘lgan va mulkchilik avloddan-avlodga o‘tadigan korxonalar sifatida ta‘riflanadi” (Gersick va boshq., 1997)¹.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada ilmiy-nazariy asos sifatida oilaviy tadbirkorlik mavzusidagi iqtisodiy adabiyot va ilmiy maqolalar, xalqaro va mahalliy iqtisodchilarning tadqiqot ishlari, oilaviy tadbirkorlik potensialini baholashga oid ko‘rsatkichlar o‘rganildi. Shuningdek, quyidagi usullardan foydalanildi: taqqoslash adabiyoti tahlili, mantiqiy va strukturaviy tahlil, guruhlashtirish va taqqoslash usullari.

Tahlil va natijalar. Ma‘lumki, keyingi yillarda mamlakatimizda oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash tizimi bir necha yo‘nalishlardan tarkib topgan bo‘lsa-da, uni amalga oshirishning tezkor mexanizmlari va o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berish zarurati sezilmoqda. Mamlakatimizda ishsizlikni kamaytirish maqsadida ko‘plab iqtisodiy dasturlar amalga oshirilmoqda.


2023-yilda oilaviy tadbirkorlikni tashkil etish hamda rivojlantirish uchun “Har bir oila – tadbirkor” dasturi asosida (9 259,8 mlrd so‘m), Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi hisobidan (579,5 mlrd so‘m), Hunarmandchilikni rivojlantirish (8,8 mlrd so‘m) uchun va Mahalliy hokimliklar huzuridagi jamg‘armalar va Bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasi hisobidan (16,2 mlrd so‘m) mablag‘lar ajratilgan. Bundan tashqari Xotin-qizlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash dasturi asosida ham oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun imtiyozli kreditlar hamda subsidiyalar ajratilgan. Bu ajratilgan mablag‘larni maqsadli dastur asosida berilayotganligi uchun ularning joylarda maqsadli foydalanilayotganlik darajasi eng muhim hisoblanadi. Bu dasturlarni ijrosini ta‘minlash uchun joylarda mahallabay ishlash, hududlar kesimida kam ta‘minlangan, “Temir” daftar, “Ayollar” daftar, “Yoshlar” daftaridagi fuqoralarni ularning oilaviy imkoniyatlaridan, hududlarning o‘ziga

¹ Kelin E. Gersick; John A. Davis; Marion McCollom Hampton; Ivan Lansberg

xos xususiyatlaridan kelib chiqib, alohida yondashuvlar asosida xizmatlar sohasini rivojlantirish, tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy resurslar va infratuzilma bilan ta'minlash hamda ularga qulay soliq rejimini joriy etish, hamda bu faoliyatlarni amalga oshirish uchun “Yo‘l xarita”larni xonadonbay ishlab chiqish lozim bo‘ladi.

Ushbu dasturlar asosida asosan kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish, aholining tadbirkorligini rivojlantirish orqali daromadlarini oshirish va shu asnoda ularning bandligini taminlash nazarda tutilgan.


Bizning tadqiqotimizda aholi daromadlarining shakllanish manbasida tadbirkorlikning ulushini oshirish, buning uchun ularning tarkibini o‘rganib chiqishimiz kerak. (1.-rasm).



1.-rasm O‘zbekiston Respublikasida aholi daromadlari tarkibi¹
(2023 yil yanvar dekabr)

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Ushbu ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, aholining daromadlari tarkibida mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlar 34%, yo‘llanma ishchilarning daromadlari 30%, transfertlardan olingan daromadlar 27%, shaxsiy iste‘mol uchun o‘zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar 6% hamda mol-mulkdan olingan daromadlar 3%ni tashkil qilmoqda. Bundan ko‘rinib turibdiki, eng yuqori ko‘rsatkich mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlar va yo‘llanma ishchilarning daromadlari tashkil qilmoqda. Mamlakatimizda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yaratilayotgan qulay shart-sharoit ushbu sohada ish bilan band bo‘lgan aholining daromadlarining oshishiga, milliy iqtisodiyotning o‘shishiga olib kelmoqda. Buning natijasida aholi jon boshiga umumiy daromadlari oshishiga olib kelmoqda. (2-rasm)



2-rasm. O‘zbekiston Respublikasida hududlar kesimida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan umumiy daromadlar²
(2023-yil yanvar-dekabr, ming so‘m hisobida)

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлигининг маълумотлари 2023 йилнинг январь-декабрь ойларида Ў (stat.uz)

² Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлигининг маълумотлари, <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/living-standards-2>

Hududlar kesimida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan umumiy daromadlar eng yuqori ko‘rsatkich Toshkent shahrida 44 427,9 ming so‘m, keyingi o‘rinlarda Navoiy viloyati 31 445,6 ming so‘m, eng oxirgi o‘rinlarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi 14 570,7 ming so‘m, Namangan viloyati 15 070,6 ming so‘m, Farg‘ona viloyati 15 716,5 ming so‘mni tashkil qilmoqda. Samarqand viloyatida ushbu ko‘rsatkich 16 886,8 ming so‘mni tashkil qilmoqda. Respublika bo‘yicha ushbu ko‘rsatkich 20 015,9 ming so‘mni tashkil qilmoqda. Ushbu hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini oshirish mamlakatimiz oldida turgan ustuvor vazifa hisoblanmoqda. Bu ko‘rsatkichlar bevosita respublikamizda tadbirkorlik muhitining, ayniqsa kichik tadbirkorlik muhitining rivojlanishini ifodalamoqda.

Xulosa va takliflar. Tahlillarimiz shuni ko‘rsatadiki, “O‘zbekiston-2030” strategiyasida ko‘rsatib o‘tilgan maqsadlarni bajarishda, jamiyat taraqqiyotida inson omilini rivojlantirishda, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, mamlakatda aholi bandligini ta‘minlash, uning turmush farovonligini oshirishda asosan oilaviy tadbirkorlik muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun bugungi kunda mamlakatimizda ushbu sohani rivojlantirish uchun ko‘plab imkoniyatlar yaratilmoqda. Ammo ushbu bugungi innovatsion rivojlantirish zamonida ushbu sohada ko‘plab ishlarni amalga oshirishni taqozo qilmoqda. Shuning uchun ushbu sohani rivojlantirishda birinchi o‘rinda tashkiliy-iqtisodiy asoslarni takomillashtirish, ularning faoliyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadigan omillarni tadqiq qilish, hamda ularni iqtisodiyotning o‘zgaruvchanligiga moslab takliflar berish va ushbu o‘zgarishlarni amaliyotga joriy qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi «O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-158-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi Qonuni, 2012-yil 26-aprel.
3. Kelin E. Gersick; John A. Davis; Marion McCollom Hampton; Ivan Lansberg
4. Howard H. Frederick, Donald F. Kuratko and Richard M. Hodgetts
5. Alicja Hadryś-Nowak PhD, Assistance Professor Poznan University of Economics
6. Miller, D. and Le Breton-Miller, I. (2006), "The Best of Both Worlds: Exploitation and Exploration in Successful Family Businesses", Baum, J.A.C., Dobrev, S.D. and Van Witteloostuijn, A. (Ed.) Ecology and Strategy (Advances in Strategic Management, Vol. 23), Emerald Group Publishing Limited, Leeds, pp. 215-240. [https://doi.org/10.1016/S0742-3322\(06\)23007-9](https://doi.org/10.1016/S0742-3322(06)23007-9)
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi Samarqand viloyati boshqarmasining malumotlari

<p>С.Искандаров</p> <p>Роль и функции в национальной экономике развития семейного предпринимательства в сфере услуг</p> <p>Аннотация. В статье рассматривается значение и функции семейного предпринимательства в секторе услуг для национальной экономики Узбекистана. Исследуется влияние данного сектора на экономическое развитие, занятость и социальное благосостояние. Оценены преимущества и вызовы, связанные с развитием семейного предпринимательства, а также роль государственной политики и поддержки в стимулировании роста этого сектора.</p> <p>Ключевые слова: семейное предпринимательство, сектор услуг, национальная экономика, развитие, функции, Узбекистан.</p>	<p>S.Iskandarov</p> <p>The role and functions in the national economy of the development of family entrepreneurship in the service sector</p> <p>Abstract. The article examines the significance and functions of family entrepreneurship in the service sector for the national economy of Uzbekistan. It explores the impact of this sector on economic development, employment, and social welfare. The paper evaluates the advantages and challenges associated with the growth of family entrepreneurship, as well as the role of government policies and support in stimulating the growth of this sector.</p> <p>Keywords: family entrepreneurship, service sector, national economy, development, functions, Uzbekistan.</p>
---	--

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

12.09.2024 йилда теришга берилди. 27.09.2024 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табоғи 15,76. Ҳисоб-нашриёт
табоғи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0110А/24

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.